

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/4 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ 5/4 (3) - 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Аббасов Беҳзод Бахтиёрович*
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ
ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ
БОШЛАНИШИ 10-21
- Бабалжанов Хасан Бахтиёрович*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ
ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ 22-27
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ 28-36
- Rasulov Ma'murjon Foziljonovich*
O'ZBEKISTONDA XALQARO SAYYONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS
OBJEKTLARINING O'RNI 37-42
- Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна*
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ
ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ 43-51
- Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
FARG'ONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN 52-58
- Фарманова Гульнара Комилевна*
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА
АФРАСИАБЕ 59-65
- Turaev Sherzod Gulboy ugli*
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN
OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH 66-71
- Сотиболдиев Файратжон Отамирзаевич*
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА
ЕЧИМЛАР 72-78
- Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ
ТАВСИФИ 79-90
- Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна*
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН 91-95
- Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли*
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН 96-102

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова*
ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i> БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i> BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI	119-125
<i>Орзукулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i> ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li</i> YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ	147-155
<i>Qurbonov Ma‘murjon G‘ayrat o‘g‘li</i> ASOSIY ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i> РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ	173-188
<i>Ғойипназаров Санжар Баходирович</i> ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллаевич</i> ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196-203
<i>Қурбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир</i> ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ	204-216
<i>Asatxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li</i> YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI	217-222

Исломов Алишер Бахтиёр ўғли
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ
ТАЪМИНЛАШ 223-229

Agzatova Nargiza Garurovna
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN 230-237

Муродова Дилноза Чориевна
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ 238-245

Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING
FUNKSIYALARI 246-250

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ
ЎРНИ 251-259

Ibroximov Sarvar Mo'yudinjon o'g'li
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 260-265

Yuldashev Ibroxim To'uchiyevich
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING
MUSHTARAKLIGI 266-271

Khamdamova Sitora Safarovna
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA
XOSLIGI 272-277

Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО
ЧЕЛОВЕКА 278-283

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK
BIRLIKLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR 284-292

Qurbonova Muharram Jurabekovna
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI 293-297

Сафарова Замира Рустамовна
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК
ТАСНИФИ 298-304

Gubaydullin Artur Faridovich
THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' 305-313

Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi
ETEL LILIAN VOYNICHNING "SO'NA" ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ... 314-318

Seytnazarova Injayim Erjanovna
TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDA LMALARNING USLUBIY
QO'LLANILISHI 319-325

Асадова Дилбархон
ЎРХОН ПАМУҚНИНГ "ҚОРА КИТОБ" РОМАНИДА "ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ" МОТИВИ 326-342

Khusanov Eldor Davlat o'g'li
BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O'XSHASH VA FARQLI
JIHATLARI 343-348

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Утемурастов Махмут Ажимурастович
ЖАМИЯТДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ХУҚУҚИЙ
ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 349-355

Шымбергенова Улзада
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ХУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ
ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 356-362

Полвонов Нажмиддин Аслиддинович
ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА
ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ 363-372

Мирзаев Шухрат Шавкатович
КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ 373-382

Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли
"ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ
ИМКОНИАТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ" 383-392

Махмудов Суннат Азим ўғли
ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ
ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ 393-399

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Farrux Axmedov
XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH 400-409

Музафарова Саодат Хайдаровна
ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ
ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ 410-415

<i>Xaydarova Iroda Nizomiddinovna</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ...	416-421
<i>Шукурова Нафиса Алишеровна</i> ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ	422-427
<i>Nigmanov Bori Botirovich</i> FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI	428-433
<i>Муродова Дурдона Раимжон қизи</i> БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ	434-438
<i>Axmedov Alisher Nosir o'g'li</i> ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI	439-447
<i>Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	448-452
<i>Mansurbekova Feruza Gayratovna</i> BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	453-456
<i>Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna</i> O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI	457-465
<i>Atamuratova Munira</i> O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI	466-471
<i>Нурилло Эминов</i> ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР	472-476

10.00.00 – Филология фанлари

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich,
Filologiya fanlari nomzodi,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI
LINGVISTIK BIRLIKLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyat muammosi masalasini o'rganishni maqsad qilib olingan bo'lib, unda frazeologizmlar tilshunoslikning an'anaviy va uning yangi sohasi – lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan o'rganilish bosqichlari tadqiq etilgan. Shuningdek, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: antropotsentrizm, kognitiv tilshunoslik, til va madaniyat, lingvokulturologiya, kontsept, kontseptosfera, milliy kontseptosfera, frazeologiya.

Хасанов Акбаржон Абдурашидович,
кандидат филологических наук,
доцент Коканского государственного педагогического института

**ИССЛЕДОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, РЕАЛИЗУЮЩИХ НАЦИОНАЛЬНУЮ
КОНЦЕПТОСФЕРУ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗЫНИИ**

Аннотация. Целью данной статьи является исследование проблемы языка и культуры, в которой исследуются этапы изучения фразеологизмов с позиций традиционной и новой для нее области языкознания - лингвокультурологии. Кроме того, изучались такие явления, как взаимодействие и связь языка и культуры, формирование этой связи и ее отражение вне языка как целостной системы.

Ключевые слова: антропоцентризм, когнитивная лингвистика, язык и культура, лингвокультурология, концепт, концептосфера, национальная концептосфера, фразеология.

Khasanov Akbarjon Abdurashidovich
candidate of philological sciences,
Associate Professor, Kokan State Pedagogical Institute

**RESEARCH OF LANGUAGE UNITS REALIZING THE NATIONAL CONCEPTOSPHERE IN THE
UZBEK LANGUAGE**

Abstract. The purpose of this article is to study the problem of language and culture, which examines the stages of the study of phraseological units from the standpoint of the traditional and new for her area of linguistics - linguoculturology. We also studied such phenomena as the interaction and connection of language and culture, the formation of this connection and its reflection outside the language as an integral system.

Key words: anthropocentrism, cognitive linguistics, language and culture, cultural linguistics, concept, concept sphere, national concept sphere, phraseology.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N36>

Kirish. Hozirgi vaqtda tilga antroposentrik yondashuv tilshunoslik sohasining eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassamlab, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Ko‘plab tadqiqotchilarning e‘tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlaridir. O‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zining ilk qadamlarini qo‘ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylana oldi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog‘lanadi. Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kognitiv so‘zi inglizcha “cognize-bilmoq, anglamoq, tushunmoq” demakdir. Kognitiv tilshunoslik “chegaradosh fan” bo‘lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolongvistika, lingvistika kabi sohalar to‘qnashuvida paydo bo‘ldi. 1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida “kognitiv grammatika” termini paydo bo‘ldi va 80-yillarda yevropaning an’anaviy tilshunosligida kognitiv tilshunoslik qaror topdi. Rus tilshunosligida esa kognitiv lingvistika V.I.Gerasimovning (“Novoe v zarubejnoj lingvistike”, 1988) ilmiy maqolasi bilan kirib keldi. Rus tilshunosligining yana bir atoqli vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildirgan: “Kognitologiya ko‘p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o‘z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko‘zlaydi, lisoniy va bilim stukturalari o‘rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi”. O‘zbek tilshunosi Sh.Safarovning fikriga ko‘ra, “Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo‘llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi aksi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir”[1; 92 b.]. Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, shunday fikr bildiradi: “Kognitiv fan kognisiya bilan shug‘ullansa, kognitiv tilshunoslik kognisiyaning, ya‘ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ko‘rsatadi”[2; 168 b.].

XX asrning oxirlarida til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga qaratilgan lingvokulturologiya deb nomlanuvchi tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan sohasi paydo bo‘ldi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik o‘rtasida joylashgan fanlararo soha sifatida qaralib, uning asosiy yo‘nalishi til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir va o‘zaro bog‘liqlik, bu aloqaning rivojlanishi va keng qamrovli tizim sifatida tildan tashqarida namoyon bo‘lishi kabi hodisalarni o‘rganishga qaratilgan. Lingvokulturologiya fanining predmeti jihatidan madaniyatshunoslik va tilshunoslik bilan ma‘lum o‘xshash tomonlari bo‘lsa-da, u o‘zining mazmuni va o‘rganilayotgan predmetga yondashuvi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Uning o‘ziga xos xususiyati nutq aloqasini tartibga soluvchi o‘ziga xos milliy va madaniy tamoyillarni tekshirishda va bu tamoyillar tilda milliy madaniyatning ifodasini qanday aks ettiradi. Ushbu soha muayyan madaniyat yoki millatning o‘ziga xos lingvistik jihatlarini belgilaydigan xususiyatlarni o‘rganadi.

Lingvokulturologiyaning vazifasi shuki, u til birliklarining madaniy mazmunini o‘zga til elementlari va madaniyatining tanish ramziy kodlari bilan o‘rganadi. Ushbu ikki soha uchun

ham umumiy bo'lgan asosiy kategoriyalardan biri, muhim o'rganish obyekti - bu konseptdir. Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. U konseptga "bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir", deb izohlaydi. Ammo shunga qaramay ushbu atamaga XX asrning 70-yillarida ham chuqur izoh talab qiladigan muammo sifatida yondashilgan. Konsept tushunchasining tilshunoslar iste'moliga kirishi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof[3; 56-58 b.], Lakof larnining asarlari bilan bog'liqdir. Ushbu matnlarda kontseptualizatsiya va kontseptual mohiyat atamaları tez-tez uchrab turadi. Turli olimlar tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan lug'at haqida turlicha qarashlarini bildirgan. Ba'zilar tushunchalarni mantiqiy kategoriya, boshqalari amaliy falsafa doirasidagi tushunchalar, ba'zilari esa milliy mentalitetning asosiy birliklari sifatida qaraydilar. "Tushuncha" atamasi lotincha "kontseptsiya" so'zidan olingan bo'lib, "kontseptsiya" deb tarjima qilinadi. Kognitiv terminologiyada kontseptsiya inson bilimlari, aqliy qobiliyatlari va psixologik resurslarini bizning fikrlash jarayonlarimizda aks ettirishni osonlashtiradigan aqliy konstruksiya sifatida ta'riflanadi. Hozirgi tilshunoslikda leksik birlikning aqliy ifodasini ifodalash uchun "tushuncha" atamasi qo'llanilib kelinmoqda. Kundalik ilmiy nutqda "tushuncha" atamasi ko'pincha "tushuncha" atamasi bilan almashtiriladi. Tilshunoslikning yangi bo'limi bo'lgan tilshunoslik til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni, bu sohada asosiy rol o'ynaydigan tushunchalarni o'rganadi.

Professor olim N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday fikr beradi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan"[4; 16-30 b.]. Garchi ushbu atama kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim kategoriya hisoblansa ham, uning ushbu fanlardagi izohi turlicha. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'ramiz. Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning barchasi ushbu tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir biriga juda yaqindir, ular konseptni "mantiqiy kategoriya" sifatida talqin etishadi. Ya'ni, Askoldovning fikriga ko'ra "konsept - bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan ko'rinishidir, xuddi mana shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi". Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o'z ichig olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtayi nazar borligini ta'kidlaydi[5; 200 b.].

Muhokama. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o'z fikrlarida aytib o'tadi. Shuningdek, har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishidan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalari tegishli, shaxsiy individual komponentlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Bir so'z bilan aytganda, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo'llanuvchi birlik hisoblanadi.

Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadi. Misol uchun, choy konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi. Masalan, o'zbek madaniyatida choy tushunchasi ko'p jihatlar bilan bog'liq:

– Chanqoqni bosuvchi vosita sifatida: issiq yashil choy yozning o'rtasida ham chanqoqni qondirish uchun iste'mol qilinadi.

– Mehmondo'stlikning ifodasi sifatida: choy - mehmonni uyga kutib olishda nondan keyin dasturxonga beriladigan asosiy nazr. "Bir piyola choy iching" iborasi tanishlarni uyga taklif qilish uchun ishlatiladi.

– Bosh og'rig'iga davo sifatida: ko'p odamlar, ayniqsa keksalar, bosh og'rig'ini boshdan kechirganda, achchiq choy ichishadi.

– Kelinlik odobining ifodasi sifatida: O'zbek madaniyatida choy berishning o'ziga xos odatlari bor. O'zbek oilalarida kelinlar choyni birinchi bo'lib yoshi kattalarga taklif qiladilar, chap qo'lini ko'ksiga qo'yib, o'ng qo'li bilan choy tortadilar.

– Suhbat davomida o'yin-kulgi shakli sifatida.

Til va madaniyat tushunchasi barcha tillarda so'zlashuvchilar uchun dunyoqarash modelini o'zgartirib, milliy xarakterning shakllanishiga madaniy ta'sir ko'rsatdi. Lingvistik va madaniy tushunchalar tilshunoslikda alohida o'rganiladi va ular umumiy ahamiyatga ega. Mavhum madaniy tushunchalar otlar, xususan, zamon, vijdon, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan, makon kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Tilshunos olim A.Y. Gurevich madaniyat tushunchalarini ikki guruhga ajratgan: "fazoviy" falsafiy kategoriyalar, ular vaqt, makon, sabab, o'zgarish, harakat kabi universal madaniy kategoriyalarni ifodalaydi; va erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik va mulk kabi zamonaviy madaniyatga xos tushunchalarni o'z ichiga olgan ijtimoiy kategoriyalar. V.A. Maslova yana bir guruhni, ya'ni milliy madaniyat toifasini qo'shadi. Tushunchalarni tahlil qilish orqali turli tillarda ko'plab madaniy o'ziga xos tushunchalar aniqlandi. Masalan, kartoshka tushunchasi o'ziga xos madaniy tushunchani ifodalaydi. Ruslar uchun kartoshka "sidet na odnoy kartoshke" (bitta kartoshkada yashash) frazeologiyasida ko'rinib turganidek, kamtarona ovqatlanish standarti bilan bog'liq. Aksincha, non belaruslar uchun asosiy oziq-ovqat va muhim milliy taom sifatida muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday, non tushunchasi turli madaniyatlarda turli darajada muhim ahamiyatga ega; O'zbeklar buni muhim standart deb bilishsa-da, guruch asosiy nuqta bo'lib xizmat qiladigan koreys, yapon yoki xitoy xalqlari uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. O'zbek tilida "kontseptual olim" tushunchasi turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, Sh.Safarov "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet - hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namunakonsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi"[6; 91 b.] ni aytib o'tadi. Tilshunos O'.Q.Yusupov konseptni "tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir"[7; 49 b.], deb ta'kidlaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildirgan: "konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir". Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kela olamiz: konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan, ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayon hisoblanib, tilshunoslikda yanada chuqur o'rganishni taqozo etadigan mavzudir. Kognitiv tilshunoslikda turli olimlarning fikrlarini

o'rganish natijasida yakdil xulosaga kelinmagani ma'lum bo'ladi va tilshunoslikning yanada chuqur o'rganilishi talab etiladigan mavzusi ekanligini bilishimiz mumkin.

Mustaqillik mamlakatimizda boshqa fanlar qatori tilshunoslik fani ravnaqiga ham kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Istiqlol davrida tilimizning frazeologik boyligini to'la qamrab oluvchi turli xil izohli lug'atlar, so'zliklar yaratishga alohida ahamiyat berildi[8; 56 b.]. O'zbek frazeologiyasining nazariy masalalarini o'rganishga e'tibor ortdi. Masalan, tadqiqotchi Q. Hakimov sodda gap qolipidagi *joni kirib qoldi, boshi ko'kka yetdi, yuragi orqasiga tortib ketdi, boshi osmonga yetdi, yuragi shuvvullab ketdi* singari frazemalarni komponent tahlil metodi asosida o'rgandi va shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi[9; 24 b.].

Natijalar. Frazemalarni komponent tahlil qilishning ayrim natijalari Sh. Rahmatullayevning ilmiy maqolasida va "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" nomli monografiyasida ham keltirilgan. Xususan, olim *ta'bi xira, dili siyoh, bag'ri qon* frazemalarining semantik strukturasi quyidagicha taqqoslaydi: "Har uch frazmadan "xafa"lik ma'nosi anglashiladi, lekin bu "xafa"lik ta'b/i/ xira frazemasida boshlang'ich bosqichda ("bir oz"), dil/i/ siyoh frazemasida normal holatdan yuqoriroq ("normadan kuchliroq darajada"), bag'r/i/ qon frazemasida esa eng yuqori bosqichda ("o'ta kuchli darajada") ekani anglashiladi. Ma'nodagi bu qadar katta farqlanish yuqoridagi uch frazema o'zaro sinonim emasligini ko'rsatadi. Asli ma'nodagi bunday farqlanishni "emotsiyaning kuchli-kuchsiz darajada kechishi" semasi deb emas, balki "ma'no gradatsiyasi" semasi deb nomlash to'g'riroq".

Sh. Rahmatullayevning fikricha, *dodini bermoq, ko'ngliga tugmoq, yo'lga solmoq* kabi "fe'l frazemalardagi bog'lashuv ko'p qirrali o'ta murakkab hodisa bo'lib, o'z doirasiga turli-tuman sintaktik, semantik hodisalarni qamrab oladi. Bog'lashuvi imkoniyati til birligiga mansub xususiyat deb qaralgani bilan bu xususiyat til birliklarining o'zaro bog'lashuvida namoyon bo'ladi, moddiylashadi. Til birligiga xos bog'lashuvning mohiyati leksik-grammatik qurshov tufayligina ochiladi. Bunda til birligiga xos ochiq o'rinni qanday sintaktik bo'lak egallashi (sintaktik bog'lashuvi), bu bo'laklarning qanday grammatik shaklda kelishi (morfologik bog'lashuv), bu bo'laklarning atalganligi (grammatik-semantik bog'lashuv) hisobga olinadi"[10; 120 b.].

Sh. Usmonova "O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar" mavzusida nomzodlik ishini ximoya qildi. Bu ish ikki bobdan iborat bo'lib, ish oxiriga o'zbekcha-turkcha muqobil somatik frazemalar lug'ati ilova qilingan. Ishning dastlabki bobida o'zbek va turk tillarida birikmaga teng somatik frazemalar lug'ati (*bosh og'rig'i, ko'z bilan qosh orasida, ko'zini olib qochmoq, qo'l ostida* kabilar) funksional-semantik jihatdan tahlilga olingan. Uning ikkinchi bobida esa gapga teng somatik frazemalar (*boshi osmonga yetdi, bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi* kabilar) semantik va grammatik jihatdan yoritilgan[11; 8-12 b.].

M. Xoliqovanning nomzodlik ishida til va tafakkur, dunyoning lisoniy manzarasi, antropomorfik omillarning tilga ta'siri kabi muammolarga oid hozirgi zamon tilshunosligidagi mavjud qarashlar va konsepsiyalar o'rganilgan. Mazkur ishda ilk bor frazemalarning milliy semantikasi, ekstralingvistik omillarning frazeologizmlar semantikasiga ta'siri kabi muammolar rus va o'zbek tillariga oid frazemalar misolida ko'rsatib berilgan. Sh.Abdullayev o'zbek frazeologiyasida ilk marta T.Qayipbergenovning "Qoraqalpoqnoma", "Qoraqalpoq dostoni" asarlarining o'zbekcha tarjimasida frazemalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandi. Ishda frazemalarning ekvivalent hamda variantlar bilan tarjima qilish usullari, iboralarni so'z bilan berishning tarjimaga qay darajada ta'sir ko'rsatishi va, aksincha,

soʻzning frazema bilan tarjima qilinishi, bu usullarning asar saviyasiga ta'siri koʻrsatilgan. Shuningdek, turgʻun birikmalarning tarjimon tomonidan tushirib qoldirilishi natijasida vujudga keladigan tushunmovchiliklar, ayrim notoʻgʻri oʻgʻirilgan frazemalar haqida ham fikrlar berilgan[12; 127 b.].

Bir soʻz bilan aytganda, bunday tadqiqotlar mamlakatimizda kelgusida qiyosiy frazeologiya sohasida juda koʻp ilmiy ishlar olib borish mumkinligini amaliy jihatdan koʻrsatdi.

“Oʻzbek tilida soʻzlarning funksional-semantik sinonimlari” mavzusidagi doktorlik ishi muallifi X. Shamsiddinov frazemalarni oddiy soʻzlarning funksional-semantik sinonimlari deb hisoblaydi va shu nuqtayi nazardan *ayyor – shaytonga dars beradigan, pixini yorgan; shoshilmoq – podadan oldin chang chiqarmoq; aralashmoq – burnini tiqmoq; indamay - lom-mim demay; yuvosh - qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan, haydamoq – dumini tugmoq* kabi soʻz va frazemalar orasidagi sinonimik munosabatlarni semantik jihatdan keng oʻrganishga harakat qilgan. Olimning bu ishi va shu asosda eʼlon qilingan oʻquv qoʻllanmasi tilimiz birliklarining maʼnodoshlik koʻlami naqadar keng va boy ekanligini koʻrsatib beradi.

Abdimurod Mamatov “Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma meʼyorlari” nomli monografiyasi va shu asosda ximoya qilingan doktorlik dissertatsiyasida oʻzbek tilshunosligida ilk bor frazeologiyaning til normasi va nutq madaniyati bilan bogʻliq muammolarini oʻrgandi. Mazkur ishning soʻnggi bobi “Hozirgi oʻzbek adabiy tilida frazeologik norma va undan chetga chiqishning tiplari” deb nomlanadi. Frazeologik normaga doir ayrim kuzatishlar, yoʻl- yoʻlakay bayon qilingan fikrlar ilgari ham mavjud boʻlgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev oʻz nomzodlik dissertatsiyasidayoq frazeologik normaga rioya qilish masalasiga eʼtiborni qaratgan. A.E.Mamatov esa oʻz ishida tildagi boshqa normalar qatori frazeologik normaning ham nazariy va ham amaliy muammolarini yaxlit holda oʻrtaga tashladi. Ana shundan keyin oʻzbek tilshunosligida frazeologik norma yoki leksik-frazeologik norma, uning buzilish hollarining oldini olish bilan aloqador ayrim ilmiy kuzatishlar eʼlon qilindi[13; 37-42 b.].

Abdugʻafur Mamatov oʻzbek frazeologiyasi uchun eng dolzarb muammolardan frazeologik shakllanish masalalarini tadqiq etish bilan shugʻullandi, shu mavzuga oid yigirmaga yaqin maqolalar, “Frazeologizmlarning shakllanishi asoslari”, “Frazeologizmlarning shakllanishining nazariy asoslari” nomli monografik tadqiqotlar eʼlon qildi va shu asosda “Oʻzbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari” mavzusida doktorlik ishini yaratdi.

K.Bozorboevning nomzodlik ishi ham oʻzbek frazeologiyasi rivojiga munosib hissa boʻlib qoʻshildi. Bu ishning dastlabki bobida soʻzlashuv nutqi frazemalarining paydo boʻlish manbalari, qatamlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari tahlilga olingan[14; 14 b.].

80-90-yillarda frazeolog olimlar oʻzbek dialogik nutqi frazeologiyasi va oʻzbek xalq ertaklari frazeologiyasini oʻrganishda ham muayyan yutuqlarga erishdilar. Oʻzbek xalq ertaklari tarkibidagi frazemalarni tadqiq etgan A.M.Bushuy va R.D.Joʻraqulovlar bu masalaga juda keng aspektda eʼtibor qaratdilar, yaʼni maqolada turgʻun, barqaror, qolip shakliga kelib qolgan koʻplab til vositalarining barchasi oʻrganildi. Maqola mualliflari oʻzbek xalq ertaklari frazeologiyasining rus tiliga tarjimasini haqida ham muhim fikr-mulohazalarni berganlar.

B.Joʻrayeva “Maqollarning lisoniy mavqeyi va maʼnoviy-uslubiy qoʻllanilishi” mavzusidagi nomzodlik ishida maqollarni unga yondosh boʻlgan frazemalardan etimologik, maʼnoviy va sintaktik jihatdan farqlashga harakat qilgan. Keyingi yillarda olim ibora va maqollardagi idiomalashuv jarayonini tadqiq etish bilan shugʻullandi[15; 109 b.].

A.Abdusaidovning monografiya va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalari hamda "Gazeta janrlarining til xususiyatlari" mavzuidagi doktorlik ishining alohida qismi frazemalarning gazeta tilida ekspressivlikni ifodalovchi vosita sifatidagi rolini tadqiq qilishga qaratilgan.

G.Isaqova o'z nomzodlik ishining uchinchi bobida, "qilmoq" fe'lining barqaror birliklar tarkibida qo'llanish xususiyatlarini izchil tahlil qilishga erishgan.

Sh.Almatova o'zbek tilidagi frazemalarni komponent tahlil qilish muammolariga doir nomzodlik ishini ximoya qildi. Bu ishning dastlabki bobi o'zbek tilidagi ot komponentli frazemalarning semantik tahlili masalalarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotchi shaxs komponentli frazemalar (*ko'ngli joyiga tushdi, jonini fido qilmoq* kabi), zonomik komponentli frazemalar (*it kunini boshiga solgan, otdan tushsa ham, egardan tushmaydi, buzoqning yugurgani somonxonagacha* kabi), somatik komponentli frazemalar (*qo'lidan kelmoq, ko'z olaytirmoq, ko'ziga issiq ko'rinmoq* kabi) ning har birini semantik jihatdan alohida-alohida tahlil qilishga harakat qilgan. Dissertatsiyaning keyingi bobida o'zbek tilidagi sifat komponentli frazemalar semantik jihatdan tahlil qilingan bo'lsa, ishning oxirgi bobida fe'l komponentli frazemalar semantik jihatdan tahlilga olinadi[16; 4-18 b.].

M.Vafoeva o'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarning struktural-semantik xususiyatlarini o'rganishga oid nomzodlik ishini ximoya qiladi. Bu tadqiqotning dastlabki bobi frazeologik sinonimiya hodisasi va uning jahon tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida o'rganish darajasini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotning keyingi bobida o'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarning struktural xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotlarning so'nggi bobida esa o'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarning semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganish, frazeologik sinonimlarda ekspressiv-baho va funksional uslubiy bo'yoqni bir-biridan farqlash va boshqa masalalar tadqiq etiladi.

Keyingi yillarda tilshunos olimlarimiz frazemalarning kognitiv-pragmatik talqini, frazemalarni modellashtirish muammolariga doir qiziqarli ilmiy tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Bu esa o'zbek frazeologiyasining bundan keyingi rivoji yana ham salmoqli bo'lishiga asos bo'ladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda frazeologiya va frazeografiya muammolariga doir ikkita respublika ilmiy anjuman o'tkazildi. Bu ilmiy anjumanlarda o'zbek frazeologiyasi bilan bir qatorda german, slavyan va eron tillari frazeologiyasini tadqiq etishga ham e'tibor berilgan edi. Shu bilan birga keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Termiz shaharlarida tilshunoslikning turli dolzarb muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarda ham ma'lum darajada o'zbek frazeologiyasi masalalariga oid ma'ruzalar tinglangan va muhokamada bo'lgan edi.

Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyasiga doir bir qator monografik tadqiqotlar yuzaga keldi. Xususan, Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" nomli tadqiqotda frazemalar dastlab bog'lashuvli va bog'lashuvsiz frazemalar deb ikki guruhga ajratib o'rganilgan. Mazkur ishlar muallifining "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari", Sh.G'aniyevaning "O'zbek frazeologizmlarining strukturaviy tadqiqi" nomli monografik tadqiqotlari o'zbek frazeologiyasi rivojida kata ahamiyat kasb etadi. G'.Ismoilov keyingi yillarda o'zbek, qozoq va qoraqalpoq tillari materiallari asosida frazeologizmlarni qiyosiy tipologik jihatdan tadqiq etish sohasida ayrim e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi. So'nggi yillarda tilshunos olimlar frazemalarning komponent tahliliga oid ko'plab ishlarni taqdim qildilar.

Xulosa. Shunisi muhimki, frazeologiya faniga doir yangicha ilmiy-nazariy qarashlar keyingi yillarda yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan ham mustahkam o'rinishmoqda. Masalan, H.Jamolxonov frazemalarni ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya deb ataydi.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari ximoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar paydo bo'ldi. Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni va ularni grammatik planda va semantik planda o'rganishni o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib Sh.Rahmatullaev boshlab berdi. Frazeologizmlarni va frazeologizmlarning grammatik tabiatini 1966-yilda ximoya etgan doktorlik dissertatsiyasida va "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida juda aniq shaklda yoritib berdi. Muhimi, bu asarda frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslab berildi va monografiyada o'z aksini topgan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o'rganishga imkon berdi. Tilshunosligimizda frazeologizmlarni grammatik-semantik tadqiqini A.Rafiev, A.Mamatov va Q.Hakimovlarning ilmiy izlanishlarida ko'rish mumkin. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni stilistik planda tadqiq etish ham yo'lga qo'yildi. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarining uslubiy xususiyatlari ko'pgina nomzodlik dissertatsiyalari uchun mavzu bo'lib xizmat qildi. Ammo ko'pgina shoir yozuvchilar asarlaridagi frazeologizmlar uslubiy jihatdan alohida mavzu sifatida emas, balki yo'l-yo'lakay tadqiq etildi. Bu o'zbek badiiy sa'natkorlarining frazeologizmlardan foydalanish mahorati va ularning uslubiy xususiyatlari to'liq ilmiy tahlil qilindi, degan gap emas. Ammo, o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni uslubiy o'rganishda B.Yo'ldashevning doktorlik dissertatsiyasi katta qadam vazifasini bajardi. Chunki ushbu ishda ilk bor frazeologizmlar ilk bor funksional-uslubiy jihatdan sistem holatida o'rganilgan va ularning nutq jarayonidagi uzual va okkazional vazifalari, badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlari kabi masalalar boy til materiallari asosida chuqur tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sistem ravishda to'la o'rganib chiqilgan deya olmasak ham, bu sohada yaratilgan qator ilmiy ishlar turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Hamma tilshunoslikda bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham frazeologiyani keng va tor tushunish kuzatilmoqda. Masalan, prof. Sh.Rahmatullaev frazeologiyani tor ma'noda tushunuvchilar qatoriga kiradi. Olimning fikricha, frazeologik obyekt ikki yoki undan ortiq leksik yoki undan ortiq leksik negizdan tashkil topgan, tuzilishi jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustma ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklardan iborat. B.Yo'ldashev o'zining doktorlik dissertatsiyasida frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchilar tarafdori bo'lib chiqadi. Muallif umumlashgan ma'no anglatuvchi, komponentlari qisman yoki to'lasicha ko'chma ma'no ifodolovchi turg'un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklardir deb hisoblaydi. Tilshunosligimizda keyingi yillarda yuzaga kelgan qator ishlarda frazeologiya obyektini tor ma'noda tushunish an'anasi mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ammo prof. A. Mamatov o'zining doktorlik ishida frazeologiyani na "keng", na "tor" doirada tushunish kerak, balki frazeologiya bahsida frazeologizmlarni, ularni turli xususiyatlarini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi va farzeologiya tarkibida o'rganilayotgan maqol, matal, aforizm, hikmatli so'z, topishmoqlar alohida o'rganishni talab etadigan o'ziga mos mavzular ekanligini, ammo tilshunosligimizda yaratilgan ayrim ishlarda frazeologiya

poyonsiz yoki aksincha ayrim frazeologizmlar birikma terminlar qatoridan o‘rin olib qolganligini aytib o‘tgan. Bunday noaniqlikning sababi “frazelogik birlik” tushunchasining mohiyati aniq belgilanmaganligida deb hisoblaydi. Frazelogizmlarni boshqa til birliklaridan farqlovchi belgilar yig‘indisi va bu belgilarni belgilashda turli xil qarashlar bor. Hozirgi bosqichda alohida rasmiylashgan, tarkibning barqarorligi, yaxlitligicha qo‘llanadigan, tayyor holda mavjudlik, obrazlilik, semantik qayta shakllanish kabilar frazeologizmlarning belgilari sifatida ko‘rsatiladi. Ammo olimning fikriga ko‘ra, bu belgilarning barchasi frazeologizmlarga xos va shu bilan birga bu belgilarning ko‘pchiligi turg‘un bog‘lanma, erkin bog‘lanma kabi birikmalarga ham xosligini aytadi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти., 2006. 92-бет.
2. Mamatov A.E.Zamonaviy lingvistika [Matn]: o‘quv qo‘llanma/ A.E. Mamatov. - Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020 -168 b.
3. Ray Jakendoff, 1989: “What is a concept, that a person may grasp it”. Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab// O‘zbek tili va adabiyoti-T.:2012, 3-16-B
5. Маслова В.А. Лингвокультурология.–М.: «Академия», 2001. - С.208
6. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
7. Yusupov O‘.Q-Ma‘no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamaları xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-toshkent,2011.-49-bet
8. Rahmatullayev Sh.O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.Toshkent,1992.
9. Hakimov Q. O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. NDA. Toshkent,1994.24 b
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi.125-bet
11. Usmonova Sh.R.O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar. NDA. Toshkent, 1998. 8-12-betlar.
12. Abdullayev Sh. D. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi.NDA.Toshkent,2006.21bet
13. Yo‘ldoshev B.Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabati//O‘zbek tili va adabiyoti,1992,3-4sonlar, 37-42-betlar.
14. Bozorboev K.T. O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. NDA.Samarqand,2001.14-bet
15. Jo‘raeva B. Ibora va maqolada idiomalashuv//O‘zbek tili va adabiyoti,2010,6-son,109-bet.
16. Almamatova Sh.T.O‘zbek tili frazemalarning komponent tahlili. NDA.Toshkent,2008. 4-18-betlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ 5/4 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).